

ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

PUBLIC EDUCATION

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

1
2022
(yanvar-fevral)

www.pubedu.uz



<https://t.me/xalqtaлимijn>





HURMATLI USTOZ VA MURABBIYLAR!

“Xalq ta’limi” ilmiy-metodik va “Xalq ta’limi axborotnomasi” jumallari bugungi kunda o’qituvchi-pedagoglarning eng kerakli nashriga aylanib, ularga yaqin ko’makchi bo’lib kelmoqda. Uning sahifalarida nashr etilayotgan maqolalardan o’qituvchilar dars jarayonida, mashg’ulotlarda, seminar-treninglarda foydalanayapti.

2022-yilda jumallarimiz o’z faoliyatini yanada takomillashtirishni maqsad qilgan. Sahifalarimizda uzluksiz ta’lim tizimidagi eng so’nggi yangiliklar, texnologiyalar, metodlar ilmiy metodik nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Shu bois, jumallarimiz har bir o’qituvchi-pedagog qo’lida bo’lishi maqsadga muvofiq.

2022-yilda obuna davom etadi. “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik va “Xalq ta’limi axborotnomasi” jumallariga obuna bo’lishni unutmang!

Obuna indekslari:

“Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali – **904**

“Xalq ta’limi axborotnomasi” jurnali – **924**

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2022

1-son

(yanvar-fevral)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4** O'qigan kishi, yangi fikr, yangi g'oya va tashabbuslar bilan yuradi



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- O. Musurmanova 6** Inson qadrini ulug'lash-farovon mahalla poydevori
- X. Ibragimov 10** Kommunikativ kompetensiya – bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim mezonlari sifatida
- O. Ro'zibayev 14** Ta'lim jarayonida talabalarning kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish yo'llari
- J. Meliqo'ziyev 17** Diniy-ma'rifiy soha taraqqiyotining yangi davrida tashkiliy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslarning mustahkamlanishi
- N. Xujayarova 23** Bo'lajak pedagoglarda kreativ sifatlarning shakllanishi
- K. Kayumova, F. Tolipov 26** Ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etishning ayrim nazariy-metodologik jihatlari xususida
- S. Yuldashev 31** Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya fanining ahamiyati
- D. Ximmataliyev, A. Jumanov 35** Kasb ta'limi o'qituvchilarini pedagogik integratsiya asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash
- M. Parpiyeva 38** Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy autopedagogik kompetentlikni rivojlantirish
- D. Shahmurodova 43** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish tamoyillari
- M. Maksumova 46** Integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish
- Sh. Xayitova 49** Innovatsion yondashuv asosida talabalarni mustaqil faoliyatini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari
- D. Abdullayev 52** O'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashda milliy qadriyatlarimizning o'rni



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- L. Namazbayeva 56** Adabiyot darslarida tarix, tasviriy san'at, musiqa fani materiallaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari
- M. Atoyeva 59** Fizika ta'limida sinergetik texnologiyalarning ahamiyati
- G. Yaxyoyeva 63** Chet tilini o'qitish jarayonida talabalar ijodiy faolligini rivojlantirishning pedagogik shartlari
- O'. Farmonov 65** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida fikrlash madaniyatini shakllantirish



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- M. Niyozqulov 69** Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish
- A. Abdazimov 72** Kredit-modul tizimi – oliy ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasining ijtimoiy-pedagogik asosi



MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- Sh. Ne'matov 76** Uyg'onish davri ma'rifatparvarlari faoliyati: tadqiq va xulosa

	O. Akbarov 82	Badiiy adabiyotda oila tarbiyasi bilan bog'liq etnopedagogik qarashlarning ifodalanishi
	M. Ashurov 87	Talaba yoshlarda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari
	G. Rasulova 91	Bolalar nutqini o'stirishda ertaklardan foydalanishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati
	H. Suyunova 95	Til ta'limida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini o'stirishning psixologik xususiyatlari
	TA'LIMDA MENEJMENT	
	G. Ergasheva 99	Umumiy o'rta ta'lim maktablarini boshqarishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo
	A. Rizokulov 104	Ta'lim xizmatlari sohasining rivojlanishi sharoitida ta'lim tizimini boshqarishning samarali mexanizmlari
	HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA	
	D. Yusupova 107	Maktab direktorlarining huquqbuzarlik holati va ularni keltirib chiqaruvchi omillar (Qashqadaryo misolda)
	MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH	
	A. Xolmurodov 113	Umumiy o'rta ta'lim pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etishning zamonaviy tendensiyalari
	MAKTABGACHA TA'LIM	
	F. Ibragimova 116	Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlarini qo'llash – sifat va samaradorlik omili sifatida
	B. Omonov 121	Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining malakasini oshirishda "chiqindilar menejmenti" o'quv modulini tashkil etish zarurati
	ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR	
	T. Kadirov 124	Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning mediakompetentligini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari
	A. Umarov 127	Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lg'usi muhandis pedagoglarning mediamadaniyatini rivojlantirish
	AXBOROT TAHDIDLARIDAN HIMOYA	
	O'. Yo'ldoshev, O'. Jumanqo'ziyev 132	O'quvchilar axborot madaniyatini shakllantirishda sinxron-diaxronli va narrativ yondashuv mohiyati
	МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ	
	В. Жаров, Х. Менгнарлов 136	О сложности педагогических процессов: наблюдение методиста-педагога
	ЗДОРОВЬЕ В ОБРАЗОВАНИЕ И БЕЗОПАСНОСТЬ	
	Д. Кочкарова 139	Структурные аспекты управления образовательной системой высшего педагогического образования

Do'stnazar XIMMATALIYEV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Pedagogika" kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari doktori

Alisher JUMANOV,

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti, "Professional ta'lim va jismoniy
madaniyat" kafedrası tayanch doktoranti

KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARINI PEDAGOGIK INTEGRATSIYA ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

Annotatsiya

Maqolada kasb ta'limi o'qituvchilarini pedagogik integratsiya asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda amalga oshirish bo'yicha yo'l-yo'riqlar ko'rsatilgan. Shu o'rinda kasb ta'limi o'qituvchilarini pedagogik integratsiya asosida mustaqil o'z ustida ish olib borishlari yuzasidan taklif va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Kasbiy faoliyatga tayyorlash tamoyillari, pedagogik integratsiya, integrativ-pedagogik konsepsiya, pedagogik integratsiya funksiyalari.

В статье представлены методические рекомендации по реализации профессионального образования при подготовке учителей к профессиональной деятельности на основе педагогической интеграции. Также представлены предложения и комментарии по самостоятельной работе учителей профессионального образования на основе педагогической интеграции.

Ключевые слова. Принципы подготовки к профессиональной деятельности, педагогическая интеграция, интегративно-педагогическая концепция, функции педагогической интеграции.

This article presents methodological recommendations for the implementation of vocational education in the preparation of teachers for professional activity on the basis of pedagogical integration. Here are suggestions and comments on the independent work of vocational education teachers based on pedagogical integration.

Key words. Principles of preparation for professional activity, pedagogical integration, integrative pedagogical concept, functions of pedagogical integration.

Respublikamizda kasb ta'limi o'qituvchilarini pedagogik integratsiya asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi "Umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi 203-sonli, 1998-yil 13-maydagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish haqida"gi 204-sonli va 2001-yil 4-oktabrdagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 400-sonli, 2006-yil 16-fevraldagi 25-sonli "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 25-dekabrda "Suv xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlash va mutaxassisliklar malakasini oshirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Hara-katlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017-yil 24-maydagi “Qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlari uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3003-sonli, 2017-yil 24-maydagi “Qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlari uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga (kasbiy-metodik jihatdan) tayyorlash negizida quyidagi asosiy tamoyillar mavjud, bular:

- kasb ta‘limi o‘qituvchilarini kasbiy-metodik jihatdan tayyorlashning insonparvar-lashtirish;

- hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan sharoitda kasb ta‘limi o‘qituvchisining ijodiy shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga tizimli, pedagogik integratsiya asosida kasbiy faoliyat nuqtayi nazaridan va texnologik jihatdan yondashuv;

- kasb ta‘limi o‘qituvchilarini aniq dalillarga asoslangan bilimlar bilan bir qatorda metodologik bilimlar bilan qurollantirish;

- kasb ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlash metodik tizimining tarkibi va mazmunini kengaytirish hamda chuqurlashtirish.

Yuqoridagi tamoyillar asosida hozirgi kunda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muas-sasalari uchun respublikamizning oliy ta‘lim muassasalarida muhandis-pedagoglar tayyorlash bo‘yicha kasbiy ta‘lim yo‘nalishida bakalavrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.

Oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarini pedagogik inte-gratsiya asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish va kasb-hunar ta‘limi tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, kasb ta‘limi o‘qituvchisini pedagogik integratsiya asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash-niing sifat va samaradorligini oshirish uchun davlat ta‘lim standartlari, o‘quv rejasi va dasturlarining tizimlilik hamda izchilligiga hamda ularni pedagogik integratsiya aso-sida kasbiy faoliyatga tayyorlashga e‘tibor qaratishni asosiy vazifalardan biri deb bel-gilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Pedagogikadagi integratsiya muammosi ko‘plab tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida turli yo‘nalishlarda qarab o‘tilgan. Fanga ilk bora kiritilganidan boshlab, to bugungi kunga qadar pedagogik jarayondagi integratsiya tushuncha jadal rivojlandi, turli shakl va mazmunda ifoda etildi, umumlashtirildi, mujassamlashtirildi va mustahkamlandi. Integratsiya tushunchasi ta‘lim va tarbiya jarayonini tashkiletishning maqsadlari, maz-muni va tamoyillari birligini ifoda etadi. Pedagogik integratsiyaning mazmun-mohiyati o‘quv-tarbiya jarayoni elementlari (mazmuni, shakllari, metodlari)ning o‘zaro birligini ta‘minlashdan iborat. Bu ta‘lim funksiyalarining kengayishi (integrativ funksiya), in-novatsion ta‘lim (integrativ ta‘lim), ta‘lim modernizatsiyasi (integrativ texnologiyalar), ta‘lim natijasi (shaxs kamoloti) orqali ifodalanadi.

Bugungi kunda olimlar fikriga ko‘ra, integrativ-pedagogik konsepsiyalarni ikki gu-ruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga bevosita integratsion jarayonlarni tadqiq etadigan konsepsiyalar kiradi. Bu ularning nomlanishida ham o‘z aksini topgan. Masalan: umumiy va kas-biy ta‘lim integratsiyasi konsepsiyasi; o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi mazmuni inte-gratsiyasi konsepsiyasi; mehnat bozori va ta‘limning o‘zaro ta‘siri konsepsiyasi; kas-biy ta‘limning ochiqligi konsepsiyasi; ijtimoiy hamkorlik konsepsiyasi; oliykasbiy ta‘lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi integratsiyasi konsepsiyasi; pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi konsepsiyasi; ta‘limni tashkil etish shakllarining integratsiyasi va differensiyasi konsepsiyasi va boshqalar.

Ikkinchi guruhga ta‘lim-tarbiya konsepsiyalari kiradi. Ularda integrativ element tashqi jihatdan namoyon bo‘lmaydi, balki ularning joriy etilishi natijasi sifatida mujassamlashadi.

Pedagogik integratsiyaning funksiyalarini aniqlab, uning turli ko‘rinishlariga xos

bo'lgan eng umumiy va o'zgarmas (invariant) funksiyalarini alohida ajratib ko'rsatib o'tish zarur. Olimlar pedagogik integratsiyaning o'zgarmas funksiyalari qatoriga quyidagilarni kiritadilar: metodologik, rivojlantiruvchi, texnologik funksiyalar. Ular ma'lum vazifalarni bajarishda pedagogik integratsiya faolligining namoyon bo'lishi usullari sifatida qaraladi.

Shu bois olib borilgan tadqiqot jarayonida kasb ta'limi bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni, ixtisoslik fanlariga oid laboratoriya ishlarini va pedagogik amaliyotni tashkil etish, bitiruv malakaviy ishini tayyorlash va himoya qilish jarayonida integrativ ta'lim tamoyillariga amal qilish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. O'tkazilgan tahlillar asosida aniqlandiki, pedagogik integratsiya asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish, integrativ pedagogik bilimlar tizimini yaratish, o'qituvchi shaxsini shakllantirish quyidagilarga asoslanadi:

- kasbiy-pedagogik faoliyatning mazmuni va vazifalari, ushbu jarayonda hal etiluvchi muammolar va yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan qiyinchiliklar xususida yaxlit tasavvurga ega bo'lgan holda shaxsiy faollikka erisha olishi;

- umumkasbiy (pedagogik va psixologik) va ixtisoslik (texnik) bilimlarning an'anaviy tizimga emas, balki kasb ta'limining o'ziga xosligi bilan belgilanadigan integrativ tuzilma va mazmunga yo'naltirilishi;

- talaba shaxsi, uning qiziqishi va ongli fikrlashi, bilim, ko'nikma, malakalari, integrativ bilimlarini doimiy ravishda boyitishga intilishi;

- tarbiyalanish darajasi (ma'naviy, axloqiy, jismoniy, mehnat va hokazo jihatidan);
- ijtimoiylashuvi (faol kasbiy va ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga tayyorligi, bilim olishni davom ettirishi, ijtimoiy va qadriyatli qoidalarni qabul qilishi);

- madaniyatligi (ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini qabul qila olishi, intellektual qobiliyati, iqtisodiy, ekologik, madaniyat, aqliy va jismoniy mehnat madaniyati va xulqi) har tomonlama pedagogik integratsiya asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining pedagogik integratsiya asosida kasbiy faoliyatga tayyorgarligining yuqori darajada bo'lishiga erishish quyidagi holatlar mavjudligini taqozo etadi:

- bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashganlik darajasi bu jarayonning umumiy mohiyatini yorituvchi integrativ pedagogik tizim samaradorligiga chambarchas bog'liqligi;

- bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchisining kasbiy faoliyatga tayyorlashni ta'minlovchi jarayonlarning tashkiliy boshqaruvi maqsadga muvofiq tarzda rivojlantirilib borilishi;

- refleksiv boshqaruv kasb ta'limi o'qituvchisini pedagogik integratsiya asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashdan ko'zlangan maqsadning natijalanishini kafolatlaydi. Refleksiv boshqaruv aniq maqsadda tashkil etilayotgan jarayon xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olish, shuningdek, har bir ta'simi uning mazmunida namoyon bo'luvchi qonuniyatlar bilan muvofiqlashtirishni talab etadi.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini pedagogik integratsiya asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tashkil etishda uning tarkibiy qismlari, darajalari, umumiy tashkiliy asoslari, mazmuni, shakli hamda metodlarini belgilovchi asosiy qonuniyatlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, pedagogik integratsiya asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni ta'minlovchi pedagogik tizim mohiyatini aniqlovchi mezonlar qator sifat ko'rsatkichlari yordamida ifodalanadiki, ularning aniqlanishi qayd etilgan mezonning ahamiyati xususida so'z yuritish imkonini beradi; ikkinchidan, mezonlar o'lchanayotgan sifat ko'rsatkichining vaqt oralig'i, ijtimoiy madaniy muhit va talaba shaxsining rivojlanib borishi jarayonidagi o'zgarishini o'zida aks ettira olishi lozim; uchinchidan, mezonlar mumkin qadar pedagogik faoliyatning barcha jabhalarini qamrab olishi zarur.

Xulosa shuki, jahon ta'lim tizimiga muvofiq ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida belgilab qo'yilganidek, bo'lajak kasb ta'limi

o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga pedagogik integratsiya asosida tayyorlash jarayoni yuksak umumbashariy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda to'g'ri yo'lni tanlay bilish mahoratiga ega bo'lish, istiqbol vazifalarini ilgari surish va amalga oshirishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirish lozim.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ularni kelgusidagi faoliyatining maqsad va vazifalari, xususiyatlari, sharoitlari, kasb-hunar mutaxassisliklari bilan tanishtirish, turli xil kasblar to'g'risida ma'lumotlar, axborotlar berish, to'g'ri kasb tanlash va egallashlariga sharoit yaratish kabi turli tadbirlar amalga oshirish bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi 2020-yil, 23-avgustdagi 637-sonli qonuni.
2. Ximmataliyev D.O. “Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi” nomli dissertatsiyasi. – T., 2018-y.
3. Кузмина Н.В. Очерки психологи и труда учителя. Психологическая структура деятельности учителя и формирование личности / Н.В. Кузмина. – Л.: Изд.-во ЛГУ, 1987. – С.104.
4. Латышин В.В. Антропосцентрированный подход к профессионально-педагогической подготовке будущего учителя // Педагогика – 2003. № 9. – С. 50-58.

Malika PARPIYEVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY AUTOPEdagogIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada autopedagogik kompetentlik takomillashtirish, ularning samaradorligini ta'minlovchi omillarni ilmiy-nazariy talqin qilish, qo'yilgan muammolarni hal etish uchun taklif etilayotgan akmeologik yondashuv texnologiyalarini qo'llash, samarali usul va vositalarni ishlab chiqish, kasbiy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish uchun foydalaniladigan o'quv-uslubiy ko'rsatmalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Autopedagogik kompetentlik, samarali usullar, samaradorlik, akmeologik yondashuv, shaxsiy ijodiy fazilatlar, kelajakdagi ta'lim faoliyati, ilg'or pedagogik texnologiyalar.

В статье рассматриваются вопросы совершенствования аутопедагогической компетентности, научно-теоретической интерпретации факторов, обеспечивающих их эффективность, использования предложенного акмеологического подхода к решению задач, разработки эффективных методов и средств обучения, используемых для повышения эффективности и качество учебного процесса, даны методические указания.

Ключевые слова. Аутопедагогическая компетентность, эффективные методы, эффективность, акмеологический подход, личностные творческие качества, будущая учебная деятельность, передовые педагогические технологии.